

Shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilik berish

O'zbekiston Respublikasining 02.07.2019 yildagi O'RQ-547-son "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, "TBC Bank" aksiyadorlik tijorat bankiga (keyingi o'rinlarda "Bank" deb ataladi) (ro'yxatdan o'tgan manzili – O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Fidokor ko'chasi, 10B-uy) avtomatlashtirilgan, shuningdek, avtomatlashtirish vositalaridan foydalanmasdan, shaxsiy ma'lumotlarimni qayta ishlashga o'z roziligimni beraman, ya'ni shaxsga doir ma'lumotlarni quyidagi maqsadlar uchun yig'ish, qayd etish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish, qo'shish), ko'chirma olish, foydalanish, uchinchi shaxslarga taqdim etish, shu jumladan xorijiy davlatlar hududiga o'tkazish, tarqatish, ommaviy Internet manbalarida - Bankning veb-sayt sahifalarida joylashtirish, shaxssizlantirish va yo'q qilish:

- O'zbekiston Respublikasi qonunlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga rioya etilishini ta'minlash;
- Bank mijozlari va Bank veb-saytiga (<https://tbcbank.uz>) tashrif buyuruvchilar oldidagi shartnoma va qonun hujjatlarida belgilangan majburiyatlarni bajarishda ishtirok etish;
- Bank xizmatlarini taqdim etish;
- Bank bilan tuzilgan Shartnomalar bilan bevosita bog'liq munosabatlarni tartibga solish.

Ushbu rozilik berish bilan shaxsga doir ma'lumotlarim quyidagilarni o'z ichiga oladi va/yoki o'z ichiga olishi mumkin: familiya, ism-sharifim; tug'ilgan sana va tug'ilgan joyim; jinsim; egallagan lavozimim; kasbim; oilaviy ahvolim va oila tarkibiga kiruvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar; asosiy shaxsimni tasdiqlovchi hujjat to'g'risidagi ma'lumotlar; ro'yxatdan o'tgan manzil va haqiqiy yashash joyim; telefon raqamim; elektron pochta manzilim; Bankka murojaat qilganda oshkor etilishi mumkin bo'lgan boshqa shaxsga doir ma'lumotlarim.

Ushbu rozilik noma'lum muddatga, uni qaytarib olish muddatigacha beriladi. Bank mening shaxsiy ma'lumotlarimni shartnomalarning amal qilish muddati tugaganida va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida, shuningdek, boshqa amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan muddat davomida, ammo har qanday holatda ham bunday shaxsga doir ma'lumotlar qayta ishlash maqsadiga erishgunga qadar ularni qayta ishlanishini davom ettirishga haqli.

Men ushbu bilan ko'rsatilgan shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlashga roziligimni Bankka istalgan shaklda ariza berish orqali qaytarib olishim mumkinligi haqida xabardorman.